

Mavzu:Antik dunyo sotsologiyasi

Reja:

Kirish

Asosiy qism

Eramizdan avvalgi yunon faylasuflari (Aflotun, Arastu, Protagor) va Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlari.

XIX – asr oxiri va XX asrning boshlarida sotsiologiyaning shakllanisha va rivojlantirilishi (O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym, M.Veber va boshqalar)

XX asr AqSh sotsiologiyasi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

- Sotsiologiya fan sifatida XIX asrning 30-yillarida shakllanib, bu tushuncha fanga frantsuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan kiritilgan.
- Ma'lumki, O.Kont falsafasi "pozitivizm" nomi bilan mashhur. U falsafani fan va metodologiya sifatida rad etadi. Uningcha, "pozitiv" falsafaning asosiy maqsadi xususiy fanlar umumiy xulosalarini umumlashtirish vazifasidan iborat bo'lgan. Bu printsiptni sotsiologiyaga ham tadbiq qilgan. Uning sotsiologiyasi empirik ma'lumotlarni to'plash va kuzatishdan iborat bo'lgan. Empirik ma'lumotlarni falsafiy jihatdan umumlashtirish esa rad etilgan. Ilmiy nazariyasiz va ilmiy metodologiyasiz jamiyat hayoti to'g'risidagi empirik ma'lumotlarni ilmiy jihatdan umumlashtirib bo'lmaydi. Ular nari borganda, sub'ektiv xulosalardan iborat bo'lib qolaveradi.
- Hozirgi kunda "sotsiologiya", "sotsilog", "sotsiologik savol-javob" "sotsiologik tadqiqot natijalari" degan iboralar kundalik hayotga kirib kelmoqda. Ularni radio va televideniya eshitishimiz, turli ro'znoma va oynomalarda o'qishimiz mumkin. Sotsiologik tadqiqotlar ijtimoiy fikrlarni o'rganishning, siyosiy partiyalar, liderlar, programmalarning reytingini, ijtimoiy tashkilotlarning va harakatlarning mavqeini aniqlashning, davlat siyosati ishlab chiqish va boshqa masalalarni echishning zarur vositasi bo'lib kelmoqda.

1.Eramizdan avvalgi yunon faylasuflari (Aflotun, Arastu, Protagor) va Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlari.

- Sotsiologiyani fan sifatida tasavvur etish uchun eng avvalo uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy hayot rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan ta'limotlar, qarashlar eramizdan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasuflari Aflotun (eramizdan avvalgi 427-347 yil) ning "qonunlar", "Davlat to'g'risida", Arastu (eramizdan avvalgi 384-322 yil) ning "Siyosat to'g'risida", "Metafizika", "Etika", Protagorning (eramizdan avvalgi 490-420 yil) "Haqiqat" kabi asarlarida yoritilgan.
- Markaziy Osiyoning mutfakkirlari bo'lmish Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo kabi ulug' allomalar o'z davri ijtimoiy hayotning turli sohalarini ilmiy asosda tadqiq qilganlar va o'zlarinig ijtimoiy qarashlarini asarlarida yozib qoldirganlar.
- Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob", "Siyosat al – madaniya" kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr va mulohazalarini bayon qilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan.
- Davlat va jamiyat masalalarida davlatni ijtimoiy tizimni boshqaruvchi tashkilot deb, uni muvaffaqiyatli boshqarish esa ko'p jihatdan davlat boshlig'i, hokimning xarakteriga, fazilatlariga bog'liq deb bilgan. "Fozil shahrining birinchi boshlig'i", deb ta'kidlaydi

- Farobiy, - shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita hislat fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur:
- Hokimning 4 muchali sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni oson bajarilishi lozim;
- Nozik farosatli, xotirasi yaxshi, zehnli, fikrini ravshan tushuntira oladigan bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi shart;
- Taom eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi, o'zini tiya oladigan bo'lishi va haqiqatni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, oliyhimmat bo'lishi, oliy ishlarga intilishi zarur;
- Mol – dunyo ketidan quvmaydigan;
- Tabiatan adolatparvar, iste'dod va jabr-zulmni yomon ko'ruvchi, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va xadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi kabi xislatlar kiradi.
- “Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb - hunarda ozod, hammaga baravar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi ozod bo'ladilar” - kabi fikrlari Farobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi.
- Abu Rayhon Beruniy o'zining “qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Minerologiya”, “Hindiston” asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. “Mineralogiya” asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan.

2. XIX – asr oxiri va XX asrning boshlarida sotsiologiyaning shakllanisha va rivojlantirilishi (O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym, M.Veber va boshqalar)

- O.Kont tomonidan 1839 yilda “Pozitiv falsafa kursi” asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida, birinchi marotaba u jamiyatni ilmiy asosda o’rganish sifatida sotsiologiya terminini qo’lladi va bu sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.
- O.Kont tomonidan ta’riflangan insonning intellektual rivojlanishining uchta izchillik bosqichi: teologiyaga oid, metafizik va pozitivik haqidagi qonuni ushbu savolga javob berish uchun imkon beradi.
- Birinchi, teologik bosqichda insonning g’ayritabiiy tushunchasi diniy tasavvurlar asosida qurilgan.
- Ikkinchi, metafizik bosqichda inson g’ayritabiiy kuchdan voz kechib, mavhum mohiyat sabab va boshqa falsafiy me’yorlar yordamida voqelikni tushuntirishga harakat qiladi. Ikkinchi bosqichning vazifasi tanqidiy, avvalgi tasavvurlarni vayron etib, u uchinchi mohiyatni ifodalashdan voz kechib, ular ustidan kuzatish bilan kifoyalanadi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o’tish hamma fanlarda bir vaqtlarda bo’lmasda izchillik bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon oddiydan murakkabga (yuqoridan quyiga) tamoyili asosida amalga oshiriladi.
- O’rganilayotgan ob’ekt qanchalar oddiy bo’lsa, u erda pozitiv bilimlar shuncha tez qaror topadi. Shuning uchun pozitiv bilimlar avvalo matematikada, fizikada, astronomiyada, ximiyada, so’ng esa

- O.Kont o'z qarashlaridan kelib chiqib, sotsiologiyani ikki qismga: sotsial turg'unlik va sotsial jo'shqinlikka bo'ladi. Sotsial turg'unlik ijtimoiy tuzumlarning amal qilish sharoitlari va qonuniyatlarini o'rgatadi. O.Kont sotsiologiyasining ushbu bo'limida asosiy ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din, ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy funktsiyalari va ularning birdamlik va hamkorlikni o'rnatishdagi rollari ko'rib chiqiladi. Sotsial jo'shqinlikda O.Kont insonni ma'naviy, aqliy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini rivojlantiradi.
- O.Kontning ko'pgina g'oyalari, avvalo tabiat va jamiyat haqidagi fanlarning ijobiy ko'rsatmalaridan sotsiologiyada foydalanish, shuningdek yaxlit sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi tasavvurlarini qabul qilib uni rivojlantirgan mutafakkirlardan biri Gerbert Spenserdir. (1820-1903).
- O.Kont kabi G.Spenser ham keng ma'lumotga ega bo'lgan olim, o'z davrining buyuk aql egalaridan biri hisoblanadi. U falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlar bo'yicha qator jiddiy asarlar muallifidir. G.Spenserning asosiy asari "Sintetik falsafa sistemasi" bo'lib, unda tabiiy va sotsial voqealarining tarixiy rivojlanishi haqidagi chuqur qarashlarini bayon etgan. G.Spenser sotsiologiyadagi organizmga oid maktabning asoschisi hisoblanadi. U o'zining organizmga oid nazariyasini va sotsial evolyutsiya tushunchasini "Ilmiy, siyosiy va falsafiy tajribalar" asarida atroflicha bayon etgan.

.XX asr AqSh sotsiologiyasi

- Empirik sotsiologiyaning vujudga kelishi “sotsial obrazlar” yoki “dalillarni tadqiq qilish” deb atalgan narsalarni e’lon qilishdan boshlangan edi. Bu o’rinda gap muayyan sotsial dalil va hodisalarni batafsil bayon qilish va ishlab chiqarish to’g’risida boradi. Sotsiologik muammolarni hal qilishning bunday usuli tez orada birinchi bo’lib AqShda, ayniqsa, keng tarqaldi. Empirik sotsiologiya shakllanishining markazi Chikago universiteti bo’ldi (uni Chikago “hayot markazi” deb ham atashgan). Bu erda 20-30 yillarda empirik sotsiologiyaning yaqqol rivojlanishini ifodalovchi ko’p qirrali amaliy tadqiqotlar keng sur’atda amalga oshiriladi. Bu yo’nalishlar aniq holatlarda kishilar hayot faoliyatlarini mukammal tadqiq etishga qaratilgan edi. Masalan, empirik sotsiologiyaning asoschilari deb hisoblanuvchi U.Tomas va F.Znanetskiy besh tomli “Polyak dehqoni Evropada va Amerikada” (1918-1920) degan asarida AqShga ko’chib kelgan polyak dehqonlarining hayotini batafsil tahlil qildilar. Bunda ular ashyoviy dalilardan, shaxsiy hujjatlardan – 28 polyak oilasining shaxsiy yozishmasi, ayrim kishilarning tarjimai holi, anketalar va shu kabi bir qancha materiallardan keng foydalandilar.
- Bu sotsiologiyada tadqiqotlar o’tkazishning yangi turi bo’lib, unda zamon va makon bilan cheklangan juda ko’p dalillar o’rganilar, ammo, odatda jamiyat hayotning muhim tomonlari qonuniyatlariga oid umumlashtiruvchi tekshirishning maxsus tartibi va texnikasi ham qo’llanila boshladi: kuzatish, interv’yu, anketa tarqatish, hujjatlarni o’rganib chiqish, tajriba o’tkazish va modellashtirish to’plangan materiallarni statistik jihatdan ishlash, diagramma, grafiklar tuzish kabilar.

- Ommaviy so'rovlar usuli va texnikasi rivojiga J.G.Gellapning "Jamoatchilik fikrini o'rganish Amerika instituti" faoliyati katta rol o'ynaydi. U 30- yillarda 10 kunlab davom etadigan umummilliy so'rovlarni o'tkazdi.
- XX-asrning 20-yillaridan boshlab Amerika shtatlari jahon sotsiologiyasi rivojida etakchi mavqeini egalladi. AqShda sotsiologiyaning fan sifatida jadal rivojlanishida quyidagi omil muhim rol o'ynaydi. Kapitalizmning yuqori bosqichga ko'tarilishi, Evropada sinfiy kurashning kuchayishi natijasida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan empirik tadqiqotlarning katta hajmda to'planganligi AqShda sotsiologiyaning fan sifatida jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu erda sotsiologiya dastlab universitet fani sifatida shakllandi. 1892-yilda jahonda birinchi marta Chikago universitetida sotsiologiya kafedrası va fakul'teti ochildi. 1901 yilda sotsiologiya 196 universitet va kolledjlarda fan sifatida o'qitilgan bo'lsa, 80-yillarning oxirlariga kelib raqam 250 ni tashkil qildi. AqShda sotsiologiya o'zining ilk davridayoq amaliy-empirik fan sifatida shakllandi. 1910-yildayoq mamlakatda 3000 dan oshiq empirik tadqiqotlar o'tkazilgan edi. Hozir bu ko'rsatkich 2 baravardan oshib ketdi. Sotsiologik tadqiqotlar o'zining juda katta moliyaviy asosiga ega. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish uchun yiliga 2 milliard dollar ajratiladi. Bu harajatlarning yarmini AqSh hukumati, qolgan yarmini xususiy biznes o'z zimmasiga olgan. AqShda hozirga kelib 100 ming sotsiolog mutaxassislar faoliyat ko'rsatmoqda. Hukumat va mulk egalari sotsiologiyaga sotsial ziddiyatlarni hal etish quroli sifatida, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi, ijtimoiy nazorat va boshqaruv omili, mehnat unumdorligini oshiruvchi kishilarning moddiy va ma'naviy munosabatlarni tartibga solib turishning ilmiy asosi sifatida jiddiy e'tibor berib kelmoqdalar.

Xulosa

- Kishilarning davlat siyosatiga, mavjud siyosiy rejimga munosabatini, moddiy turmush darajasini, kayfiyati, intilishlari va shu kabi munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish orqali mavjud ijtimoiy-siyosiy holat yuzaga chiqariladi. Faqat to'la qonli demokratik tuzumdagina mavjud siyosiy kuchlarning fikrlar xilma-xilligiga yo'l qo'yiladi.
- Sotsiologiyada tadqiqot natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ilmiy asoslangan va ob'ektiv xarakterda bo'lishi talab qilinadi. Agar davlat demokratik asosda boshqarilmasa, hokimiyat tepasidagi siyosiy kuchlar manfaatiga xizmat qilmaydigan har qanday ilmiy sotsiologik tadqiqotdan voz kechiladi va u ta'qiqlanadi. Siyosiy ideologiyaga bo'ysundirilgan sotsiologiya o'zining ilmiyligini yo'qotib sub'ektiv, sun'iy va sohta xususiyatga ega bo'lib qoladi.
- O'zbekistonda sotsial fikrlar rivojida 20-30-yillardagi jadidchilik harakati g'oyalari muhim rol o'ynaydi. Ma'rifatparvar jadidlar shartli ravishda 3 ta guruhga bo'lingan holda (ijtimoiy siyosiy, madaniy-ma'naviy, diniy-ma'rifiy) milliy mafkurani yaratish, yangicha ta'limni joriy etish milliy madaniyatni rivojlantirish diniy va mahalliy urf-odatlarini keng yoyishning ijtimoiy ma'naviy jihatlarini bilan bir qatorda sotsial jihatlarini ham atroflicha tahlil qilganlar. Ularning bu g'oyalari respublikamizda keyingi davrlarda sotsial qarashlar rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekistonda dastlab 1989-yilda Toshkent Davlat Universiteti hozirgi UzMU falsafa fakul'teti tarkibida sotsiologiya bo'limi va kafedrasini tashkil qilindi. Shu yildan boshlab sotsiologlar tayyorlana boshlandi va 1994 yili 40 mutaxassis bitirib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., 1997
- Lavrienko V.N., Narpov N.A. Osnovi sotsiologicheskix znaniy. VUZ. (Sotsiologiya) – M., 1995
- Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari. T.:1997.
- Zborovskiy G.E., Orlov G.P. Vvedenie v sotsiologiyu. Ekaterinburg: 1995.
- Radugin A.A., Radugin K.A. Sotsiologiya. Kurs lektsiy. – M.: 1993.
- Kapitonov E.A. Sotsiologiya XX veka. Istoriya i texnologiya. Rostov-na-Donu. 1996.
- Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya. Klassicheskie traditsii i poiski novoy paradigmi. M.: 1990
- Ubaydullaeva R.T., Xaydarov A. Sotsiologiya tarixi – T.: 1993.
- Umarov. Iqtisodiy islohot O'zbekiston o'rtacha aholisining nigohida. «Xalq va demokratiya» 1992.
- Aron R. Etapi razvitiya sotsiologicheskoy misli. – M.: 1993.
- Dyurkgeym E. O razvitiya obshestvennogo truda. Metod sotsiologii – M.: 1990
- Kratkiy ocherk istorii sotsiologii- M.: 1990.
- Yunusov K. Sotsiologiya. O'quv qo'llanmasi. Andijon.1997.
- Rafiqov H., Hoshimov T. Sotsiologiya asoslari – T.: 1997.
- Aliqoriev N. Umumiy sotsiologiya. – T.: 1999
- O'zbekim. «Vatan seriyasi» T.F.: 1992. 142-177 betlar.
- Xoshimov T. Sotsiologiya. O'kuv qo'llanma.- T.: 1996.